

U. Y. FAYZIYEVA

NUTQ O‘STIRISH

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan
maktab va maktab-internatlarning 1- sinf darsligi

6- nashri

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
tomonidan tavsiya etilgan*



„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2019

UO'K: 81'233
KBK 74.102
F 20

Taqrizchilar:

X. Kalbayeva — TDPU kafedra mudiri;

F. Qodirova — F. n., dotsent;

M. Mirzakarimova — Andijon viloyati Xo'jaobod tumani 17-sonli kar bolalar maktab-internati surdopedagogi.

74.102
F 20

Fayziyeva U. Y.

Nutq o'stirish: imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi (Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun). 6- nashri. – Toshkent: „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 96 b.

UO'K: 81'233
KBK 74.102

Ubayda Fayziyeva

NUTQ O'STIRISH

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 1-sinf darsligi (Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun)

6- nashri

*„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2019*

Muharrir *M. Nishonboyeva*

Badiiy muharrir *O. Sava*

Rassom *D. Do'smatova*

Texnik muharrir *N. Niyozmuhamedova*

Kompyuterda sahifalovchi va dizayner *O. Sava*

Musahhah *M. Ibrohimova*

Nashriyot litsenziyasi AI №012. 20.07.2018. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 29.05.2019. Bichimi 60×90¹/₈. Kegli 19,0 shponli. Garnitura „AG_Helvetica“. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'oz. Shartli b. t. 12,00. Hisob-nashriyot t. 9,22. Adadi 486 nusxa. Buyurtma №

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 206, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 1- uy. Shartnoma № 238-18.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-22-365-3

© U. Fayziyeva

© „O'qituvchi“ NMIU, 2019

I CHORAK

1- sentabr — O‘zbekiston Respublikasining
Mustaqilligi kuni!



Rasmni kuzating.

Bayramni siz qayerda va qanday nishonladingiz?

SINFDA



Bu sinf. Sinfda o'qituvchi va o'quvchilar bor. O'qituvchi stulda o'tiribdi. O'quvchilar stullarda o'tiribdilar.


Sinfda nimalar bor? Ayting va daftaringizga yozing.



stul



parta



kitob javoni



kitob



daftar



ruchka



mikrofon



naushnik

Topshiriqni tushunish va bajara olish, o'z xohish-istaklarini, iltimosni tushuntira olish.

Ko'rsat: Sinfni ko'rsat. Stolni ko'rsat. Partani ko'rsat. Kitobni ko'rsat. Ruchkani ko'rsat. Mikrofonni ko'rsat. Stulni ko'rsat.

O'tir, tur: Stulga o'tir. Joyingga o'tir. Tur. O'tir.

Chiq, kir: Sinfdan chiq. Sinfga kir. Dorskaga chiq.


Yoz: Dorskaga yoz. Daftarga yoz.

Iltilmos qilish: Iltilmos, menga mikrofonni ko'rsating. Iltilmos, menga kitobni ko'rsating. Iltilmos, menga partani ko'rsating. Iltilmos, menga doskani ko'rsating.

Xohish-istakni bildirish: Men kitobni olishni xohlayman. Men stulga o'tirishni xohlayman. Men yozishni xohlayman. Men

Bir nechta buyumlar bilan harakat bajarilishi: Men kitob va daftarni olaman. Men ruchka bilan qalamni olaman. Men ruchka va qalam bilan yozaman.

YOTOQXONA



kiyim javoni




stol




stul



tumbochka,
karavot



gilam



ko'rpa



yostiqliq

Yotoqxonada nimalar bor? Ayting va daftaringizga yozing.



Bu yotoqxonada.

Yotoqxonada ..., ..., ..., ..., ..., ..., ..., ... bor.


Tekshiring: karavot, ko'rupa, yostiq, choyshab, gilam, kiyim javoni, tumbochka, stol, stul, kitob javoni.

Karavotning ustida choyshab, ko'rupa, yostiq bor.

Ko'rsat: Karavotni ko'rsat. Ko'rpani ko'rsat. Yostiqni ko'rsat. Choyshabni ko'rsat. Gilamni ko'rsat. Kiyim javonini ko'rsat. Tumbochkani ko'rsat. Stolni ko'rsat. Stulni ko'rsat.

Itimos qilish: Itimos, menga karavotni ko'rsating. Itimos, menga ko'rpani ko'rsating. Itimos, menga tumbochkani ko'rsating.

OSHXONA



sanchqi



qoshiq



cho'mich



choynak



piyola



kosa



lagan




likopcha



kosalar



piyolalar



likopchalar



sanchqilar



qoshiqlar



Oshxonada nimalar bor? Idishlar nimaning ustida turibdi? Ayting va daftaringizga yozing.

Oshxonada stol va javon bor. Stol ustida: ..., ..., ..., ..., ..., ..., ..., bor. Idishlar stolning ustida turibdi.

Tushunmaganingizni bildiring, iltimos bilan murojaat qiling.

Men tushunmadim. Idishlar nimaning ustida? Iltimos, menga cho'mich va laganni ko'rsating. Menga likopcha rasmini ko'rsating.

Rasmdagi idishlar nomini ayting va yozing.

Bu Bu Bu Bu Bu

OZIQ-OVQATLAR



Lolaning onasi bozorga bordi. U non, go'sht, qand, tuxum, konfet, sariyog', makaron sotib oldi.



go'sht



qand



tuxum



sariyog'



makaron



konfet

Lolaning onasi nima olib kelgan? O'ylang va yozing.

Lolaning onasi ..., ..., ..., ..., ..., ... sotib oldi.

Lolaning onasi go'sht sotib oldi.

Lolaning onasi konfet sotib oldi.

MEVALAR



shaftoli



banan



anjir



uzum



olxo'ri



olcha



nok



olma



Daftaringizga yozing va ayting.

Shunday yozing.

Mevalar laganda turibdi.

Laganda olma, ..., ..., ..., ..., ..., ... turibdi.

Lagan stolning ustida turibdi.

Nuqtalar o'rnini to'ldiring. Daftaringizga yozing.

Lagan stol... usti... turibdi.

Likopcha ham stolning usti... turibdi.

Olma, anor, uzum, shaftoli, nok, limon, xurmo, olxo'ri — mevalar.

Mevalar daraxtda o'sadi.

SABZAVOTLAR



karam



lavlagi



sholg'om



sabzi



pomidor



bodring



piyoz



kartoshka

Kartoshka, piyoz, sabzi, karam, pomidor, bodring, lavlagi, sholg'om — sabzavotlar. Sabzavotlar yerda o'sadi.

Bolalar bobosi va dadasi bilan sabzavotlarni teriyaptilar. Lola sabzi terdi. Olim esa ularni qopga soldi.

Rasmga qarang. Ekinzorda nimalar o'sadi? Ayting va daftaringizga yozing..

Ekinzorda sabzi, ..., ..., ..., ..., ..., ... o'sadi.

Nuqtalar o'rnini to'ldiring. Daftaringizga yozing va ayting.

Ka..., bod..., pomi..., sab..., shol..., kartosh... .
Bolalar bobosi va dadasi bilan sabzavotlarni
Salima ... terdi va sabzini Olimga

Kim nimani yaxshi ko'radi? Kim nimani yomon ko'radi?

Lola konfetni yaxshi ko'radi. Botir shokoladni yaxshi ko'radi.

Lola sutni yaxshi ko'rmaydi. Botir saryog'ni yomon ko'radi.

Hamma bolalar shirin choyni yaxshi ko'radilar.
Hamma bolalar mevalarni yaxshi ko'radilar.
Qalampir achchiq. Bolalar qalampirni yomon ko'radilar.

Sen nimani yaxshi ko'rasan? Sen nimani yomon ko'rasan?

Ayt va yoz.

Shirin, achchiq, nordonni bilib oling.

olma —	limon —
nok —	kivi —
uzum — shirin	anor — nordon
gilos —	olcha —
banan —	ananas —
shaftoli —	olxo'ri —
behi —	apelsin —
qalampir — achchiq	

Shirin va nordonni ajratib yozing.

uzum ...	olxo'ri ...
anor ...	banan ...
anjir ...	olcha ...

SABZAVOTLARDAN OVQAT PISHIRILADI.

Kartoshka, piyoz, sholg'om, pomidor, sarimsoq, sabzi, go'shtdan sho'rva, osh, do'lma pishiriladi.



sho'rva



osh



do'lma

MEVALARDAN MURABBO VA SHARBAT PISHIRILADI.

Olcha, gilos, shaftoli, anjir, olxo'ri, limondan murabbo pishiriladi.



olcha
murabbosi



shaftoli
murabbosi



olxo'ri
murabbosi



apelsin
sharbati



olma
sharbati



gilos
sharbati



shaftoli
sharbati



Bolalar sharbat ichyaptilar.



Lola piyolaga murabbo solyapti.

YUVINISH XONASI



Lola



Salima



Olim



Tolib




Vali



Naima


Yuvinish vositalari
Bular bilan nima qilasan?



sovun




tish pastasi



tish
cho'tkasi



sochiq



taroq

Kim nima qilyapti?



Kim?

Lola, Salima, Olim, Tolib, Vali, Naima yuvinish xonasida.

Nima qilyapti?

Lola qo'lini yuvyapti. Salima tishini yuvyapti, Olim bo'ynini artyapti. Tolib qo'lini artyapti. Vali quloqlarini yuvyapti. Naima sochig'ini osyapti. Bolalar yuvinyaptilar.

Ayting va yozing.

Vali nima qilyapti?

Lola nima qilyapti?

Salima nima qilyapti?

Sen nima qilding?

Men yuzimni, qo'limni yuvdim. Men qo'limni yaxshilab yuvmadim. Menga yordam bering. Men tishimni o'zim yuvaman. Mening tishlarim toza.

Siz nima qildingiz?

Biz yuvinish xonasiga bordik. Biz hammamiz yuvindik.

Biz qo'limizni, yuzimizni, tishimizni yuvdik. Biz endi ovqatlanamiz.

Do'sting nima qildi?

Lola yuzini, qo'lini yuvdi. Naima qo'lini yaxshilab yuvmadi. Unga yordam bering. Said tishini o'zi yuvdi. Uning tishlari toza. Azizaning tishi toza emas. U tishini yuvadi.

Hamma yuvindi. Endi ovqatlanamiz.

Men Sen U



Men



Sen



U

Men

oldim
berdim
ko'rdim
yuvindim
ichdim
kiyindim

Sen

olding
berding
ko'rding
yuvinding
ichding
kiyinding

U

oldi
berdi
ko'rdi
yuvindi
ichdi
kiyindi

U NIMA QILDI?



U ol...



U ber...



U yuvin...

Kimniki?

meniki

uniki

ularniki

Nechta?

bitta

ikkita

beshta

Qayerda?

sinfda

ko'chada

yuqorida

Qayerga?

sinfga

ko'chaga

yuqoriga

Nima qilding?

Men tishimni yuvdim.

Men multfilmni ko'rdim.

Men ertak o'qidim.

Men bolalarni chaqirdim.

Nima qilasan?

Men qo'limni yuvaman.

Men yordam beraman.

Men stolni artaman.

Men maykamni kiyaman.

Nima qildingiz?

Biz yuvinish xonasiga bordik.

Biz yuvindik.

Biz qo'limiz, yuzimiz va tishimizni yuvdik.

Nima qilasisiz?

Biz ovqatlanamiz.

Biz dars qilamiz.

Biz rasm chizamiz.

Bu nima? U kimniki? Nechta? Qayerda? Qayerga?

Bu stol kimlarniki?
Nechta stul bizniki?
Sening qoshig'ing
qayerda?
Sen sovunni qayerga
qo'yding?
Sen sochiqni qayerga
osding?

Bu stol bizniki.
To'rtta stul bizniki.
Mana mening qo-
shig'im.
Men sovunni qu-
tiga qo'ydim.
Men sochiqni il-
gichga osdim.

O'qing, sochiq, sovun, cho'tka rasmini chizing.

Sochiq osilgan.

Tish pastasi javonda.

Sovun qutichada.

Cho'tka tish pastasi yonida.

EKINZOR





Lavlagi | Kartoshka | Piyoz | Bodring | Pomidor | Karam

Ekinzorda nimalar o'sadi? Ayting va yozing.

Sabzavotlar qayerda o'sadi?

Ekinzorni ko'rsating. Ekinzorda nimalar o'syapti?
Ayting va yozing. Shunday yozing:

Ekinzorda ..., ..., ..., ..., ... o'syapti.

Qo'yish uchun so'zlar: *karam, kartoshka, pomidor, sabzi, piyoz.*


Kim nima qilyapti?

Ekinzordagi bolalarga ism qo'ying.

Kim pomidor teryapti?

Kim karam teryapti?

Rasmlarda nimalarni ko'ryapsiz? Daftaringizga yozing.



Doniyor nima yeyapti?
Doniyor ... yeyapti.



Sevinch nima yeyapti?
Sevinch olma ...



Komil nima yeyapti?
Komil ... yeyapti.



Lola nima yeyapti?
Lola ... yeyapti.



Quyvon nima yeyapti?
Quyvon ... yeyapti.

Qanday? so'rog'iga javob bering.

Limonning mazasi qanday?

Limonning mazasi

Nokning mazasi qanday?

Nokning mazasi

Olchanning mazasi qanday?

Olchanning mazasi

Qo'yish uchun so'zlar: *nordon, shirin, nordon.*


Limonning rangi sariq, shakli oval.

Limon yumshoq, olcha yumshoqroq.



„MEVALAR“ APPLIKATSIYASI

Vali „Mevalar“ applikatsiyasini yasadi. Siz ham shunday applikatsiya yasang.



Ish uchun sizga nimalar kerak? Yozing.
Shunday yozing:

Ish uchun menga ..., ..., ..., ..., ..., ... kerak.

Qo'yish uchun so'zlar: oq qog'oz, qalam, olma andazasi, xurmo andazasi, barg andazasi, yelim, qaychi.

Applikatsiyani shunday bajaring.

1. Xurmo andazasini oling.
2. To'q sariq rangli qog'ozning ustiga qo'ying. Chizib oling.
3. Barg andazasini oling. Yashil rangli qog'oz ustiga qo'ying. Chizib oling. Xurmo va bargni qirqib oling.
4. Olma andazasini oling. Qizil qog'oz ustiga qo'ying. Chizib oling. Olmani qirqib oling.
5. Olma va xurmoni oq qog'ozga yelimlang.

Nuqtalar o'rnini to'ldirib hisobot yozing. Savollarga javob yozing.

Applikatsiyadagi olmaning rangi qanaqa?

Xurmo ...sini oldim. rangli qog'oz ustiga qo'ydim. Chizib oldim. Barg andazasini Yashil rangli ... ustiga qo'ydim. Chizib Xurmo va bargini qirqib

Olma ...sini oldim. ... qog'oz ustiga Chizib Olmani ... oldim.

Sabzi va pomidor applikatsiyasi.

Sabzi qanaqa?

Pomidor qanaqa?

Daftaringizga yozing.

Shunday yozing:

Sabzi uzunchoq, sariq, shirin, qattiq.

Pomidor yumshoq, qizil, nordon, dumaloq.

Siz qanday sabzavotlarni yaxshi ko'rasiz?

Daftaringizga shunday yozing:

Men ..., ..., ..., ... yaxshi ko'raman.

Savollarga javob yozing.

Behi qanday rangda?

Sabzi qanday rangda?

Bodring qanday rangda?

Behi qanday shaklda?

Bodring qanday shaklda?

Sabzi qanday shaklda?



„SABZAVOTLAR“ APPLIKATSIYASI

Bobur „Sabzavotlar“ applikatsiyasini yasadi. U applikatsiyani qanday yasaganini yozing.

Bobur avval ...ni qirqib oldi.

Keyin u andazani oq qog'oz ustiga qo'ydi. Andazaning ustidan chizib chiqdi va qirqib oldi. Keyin u ..., ..., ...ni qog'ozga yelimladi.



Bobur applikatsiyani Lolaga ko'rsatdi. Lolaga „Sabzavotlar“ applikatsiyasi yoqdi. U ham xuddi shunday applikatsiya yasadi.

Qo'yish uchun so'zlar: *sabzi, kartoshka, piyoz andazasi.*

Lola applikatsiyani qanday yasadi?

Lola ... va ... oldi. Keyin u baqlajonni chizib oldi va qirqdi.

Undan keyin baqlajon bilan pomidorni yelimladi. Lolaning applikatsiyasi chiroyli chiqdi.

Qo'yish uchun so'zlar: *qog'oz, qalam.*


Siz ham sabzavotlar applikatsiyasini yasang.

DARAXTLAR

Manzarali daraxtlar



tol



terak



chinor



archa

Mevali daraxtlar



olma



nok




o'rik

BARGLAR



terakning bargi



yong'oqning bargi



tolning bargi



chinorning bargi

Barglarning rasmini chizing.

O'qituvchining topshirig'ini eshiting.

Savollarga javob bering.

O'qituvchi: — Kimda rangli qalam, qog'oz bor?

O'quvchi: — Ustoz, menda rangli qalam, qog'oz bor. Men rasm chizaman. O'rtog'imda ham rangli qalam va qog'oz bor. U ham rasm chizadi.

O'qituvchi: — Kim ishni bajardi? Ko'rsating.

O'quvchi: — Ustoz, men ishni bajarib bo'ldim. Mening ishimi ko'ring. To'g'ri bajardimmi? O'rtog'imning ishini ko'ring. Kimning ishi to'g'ri?

Hammangiz o'rtog'ingizning ishini ko'ring va baholang.

DARAXT VA BUTALAR



Bu daraxt.



Bu buta.



anor butasi

na'matak butasi

maymunjon butasi

BOG'

Bog'da mevali daraxtlar o'sadi.



uzumzor



anorzor



olmazor



olchazor

Mevalar daraxtlarda va butalarda o'sadi.



Bu olma.



Bu maymunjon.



Bu anjir.

Daftaringizga yozing. Rasmini chizing.

anor — anorzor

olma — ...

anjir — ...

uzum — ...

anor — qizil rangda

olma — ... rangda

anjir — ... rangda

uzum — ... rangda

Qo'yish uchun so'zlar: *anjirzor, qizil, olmazor, sariq, uzumzor, yashil.*

MEVALARNING RANGI, MAZASI

Olma daraxti, olxo'ri daraxti, shaftoli daraxti — mevali daraxtlar.

Qanday? Qanaqa?



yashil olma



sariq olma



qizil olma

Yashil olma nordon. Sariq va qizil olma shirin.



anor



nok



olxo'ri



uzum



anjir

Anor qattiq, donali, suvli, shirin.

Nok yumshoq, suvli, shirin.

Olxo'ri yumshoq, suvli, shirin.
Uzum donali, suvli, shirin.
Anjir yumshoq, suvsiz, shirin.

Savollarga javob bering.

Anor qanaqa?
Olxo'ri qanaqa?
Anjir qanaqa?

Nok qanaqa?
Uzum qanaqa?

Mevalar rasmini chizing.

Mevalar qayerda o'sadi?
Anor rasmini chizing.
Nok rasmini chizing.
Olxo'ri rasmini chizing.
Uzum rasmini chizing.
Anjir rasmini chizing.



Bu anor shirin.
Lola shirin anor yedi.



Bu anor nordon.
Olim nordon anor yedi.


Qaysi mevalar shirin, qaysi mevalar nordon?
Daftaringizga yozing.

uzum — ...
kivi — ...
olma — ...

limon — ...
anjir — ...
shaftoli — ...

Rasmlarning o'rniga so'z qo'ying va daftaringizga yozing.

Bolalar



bordilar.


Ular



terdilar.




ni



ga soldilar.

Bu



sariq.




— qizil.

„BOG“ APPLIKATSIYASI

iltimosni maqsad orqali tushuntirish.

Bolalar „Bog“ applikatsiyasini yasadilar. Ish uchun oq, havorang, qizil, yashil, jigarrang qog'oz, olma va olma daraxti andazalari, qaychi, yelim oldilar.

Siz ham „Bog“ applikatsiyasini yasang.



1. Yashil qog'ozning ustiga daraxt andazasini qo'ying. Chizib oling. Keyin qaychi bilan qirqib oling.

2. Qizil qog'ozning ustiga olma andazasini qo'ying. Chizing va qaychi bilan qirqib oling.

3. Bulutning andazasini oq qog'ozga chizing va qirqib oling.

4. Oq qog'ozning yarmiga avval ko'k rangdagi qog'ozni yelimlang. Keyin daraxtni yelimlang. Daraxtning ustiga olmalarni yelimlang. Osmonga oq bulutni yelimlang.

Nuqtalar o'rniga so'z qo'yib, iltimos qilib so'rang.

Men olma shaklini chizaman. Iltimos, menga andaza bering.

Men daraxt andazasini topmadim, menga daraxt ... bering.

Menda bulut andazasi yo'q. Iltimos, menga ... andazasini bering.

Bajarayotgan ishingiz to'g'risida xabar bering.

O'qituvchi: — Siz „Bog'da daraxtlar“ applikatsiyasini qanday bajardingiz?

O'quvchi: — Biz birgalikda „Bog'da daraxtlar“ applikatsiyasini bajaramiz.

Birinchi daraxtlar andazasini chizib olamiz va qirqib oq qog'ozga andazani yopishtiramiz. Keyin mevalar andazasini chizib, mevalarni qirqib olamiz. So'ng mevalarni daraxtlarga yelimlaymiz.

Taqiqlashni bildirgan so'zlarni tushuning va qo'llang.

Mumkin emas!
Xalaqit berma!
Yugurma!

Kitobga chizma!
Daftarni yirtma!

O'qituvchining topshirig'ini eshiting.
Bolalarga murojaat qiling.

- ...ni chaqir.
- ...ga ...ni ber.
- Manzuradan yelimni ol.
- Salimga yordam ber.
- Validan kitobni so'ra.

- Nodira!
- ..., ruchkani ol.
- Rahmat.
- Sodiq! Men yordam beraman.
- Vali! Iltimos, kitobni ber.

QAYIQCHA YASASH

Qayiqcha yasang. Qanday yasaganingizni ayting.



Vali qayiqcha yasashni xohladi.

- Ustoz, men qog'oz oldim.
- Qog'ozdan nima yasaysan?
- Men qayiqcha yasashni xohlayman. Men qayiqcha yasashni bilaman.
- Mana senga namuna. Namunaga qarab yasa.

Kim nima yasashni xohlaydi? Ustozingizga ayting.
Shunday ayting:

Men ... yasashni xohlayman. Ish uchun menga ... bering.

Namunaga qarab ishlang. Ishingiz haqida hisobot bering.

— Ustoz, men avval qog'ozni oldim. Keyin namunaga qarab bukladim. Orasini ochdim, namunaga qarab yana bukladim. Keyin orasini ochdim. Mana mening qayiqcham.

O'rtog'ingizga ko'rsating. Kimning qayig'i chiroyli?

MEVALAR PISHDI



Kuz fasli. Bolalar bog'ga bordilar. Bog'da mevali daraxtlar ko'p. O'ng tomonda olmazor. Chap tomonda anorzor. To'g'rida olxo'rizar. Anvar aka bilan Lobar opa olxo'ri teryaptilar. Ulug'bek anor teryapti. Olim anorlarni taxlayapti.

Savollarga javob yozing.

Bolalar qayerga bordilar?

Bog'da qanday daraxtlar bor?

O'ng tomonda nimalar o'syapti?

Chap tomonda nimalar o'syapti?

To'g'rida nimalar o'syapti?

Anvar bilan Lobar nima teryaptilar?

Ulug'bek nima teryapti?

Olim nima qilyapti?


PLASTILIN BILAN ISHLANG

Plastilindan mevalarni yasang.

Plastilindan anjir yasang.

Plastilindan anor yasang.

Plastilindan olxo'ri yasang.



Bolalar plastilindan mevalar yasayaptilar.

Lobar plastilindan sariq olma yasayapti.

Sobir plastilindan qizil olma yasayapti.

Murod plastilindan sariq nok yasayapti.



Mevalarning nomlarini yozing va ayting.

Nok qanaqa?
Uzum qanaqa?
Anor qanaqa?
Behi qanaqa?
Shaftoli qanaqa?
Anjir qanaqa?
Olxo'ri qanaqa?
Limon qanaqa?

Nok qizil va sariq.
Uzum yashil.
Anor qizil.
Behi sariq.
Shaftoli oq va qizil.
Anjir sariq.
Olxo'ri siyohrang.
Limon sariq.


KIYIMLAR



qiz bolaning
ko'ylagi



o'g'il bolaning
ko'ylagi



kastum va
shim



jemper



palto va telpak



kurtka



yubka



kofta



triko



paypoq



kolgotka



mayka va trusi

OYOQ KIIYIMLAR



tufli



botinka



etik



krossovka



Qiz bola ko'ylak
va tufli kiydi.



O'g'il bola
kastum kiydi.




Qizlar nima kiygan?



O'g'il bolalar nima
kiygan?

ISTIROHAT BOG'I



Bu istirohat bog'i. Istirohat bog'ida daraxtlar va gullar ko'p. Katta ko'l va bolalar uchun akvapark bor. Bolalar uchun arg'imchoqlar, qayiq, balandda uchadigan o'rdaklar, avtodrom va charxpalak bor.




akvapark



arg'imchoq



qayiq



o'rdaklar




avtodrom



charxpalak

II CHORAK

ISTIROHAT BOG'IDA



Bu ham istirohat bog'i. Bolalar bobosi, onasi bilan bog'da. Bobo o'rindiqda o'tiribdi. Bobo dam olyapti. Shuhrat ot o'ynayapti. Komila va Umida to'p o'ynayaptilar. Lola va Sobir qumda o'ynayaptilar. Kichkina Adiba va Odil onasi bilan o'ynayaptilar. Kamol velosipedda uchyapti. Anora ularni kuzatib o'tiribdi.

Istirohat bog'ini iflos qilmang! Tabiatni asrang!

Savollarga javob yozing.

1. O'rindiqda kim o'tiribdi?
2. Kimlar to'p o'ynayapti?
3. Kimlar qumda o'ynayapti?
4. Kichkina Adiba va Odil kim bilan o'ynayaptilar?
5. Kamol nima qilyapti?

MEHRIBONLIK



Qobil bilan Adiba aka-singil. Ular inoq yashaydilar. Ular birga o'ynaydilar. Birga sayr qiladilar.

Bir kuni Qobil qog'oz, yelim va qaychi olib keldi. Ular quticha yasadilar. Qobil chiroyli quticha yasadi. U xursand bo'ldi. Adiba hali juda kichkina. U yasashni bilmaydi. Uning qutichasi yomon chiqdi. Adiba yig'ladi.

Akasi unga chiroyli quticha yasab berdi.

Akasi nima qildi?

O'ylab ko'ring va daftaringizga yozing.

Siz kimga mehribonsiz?

Sizga kimlar mehribon?

POLIZDA



Bu poliz. Polizda qovun va tarvuz o'sadi. Mana, o'ng tomonda tarvuzlar. Chap tomonda qovunlar.

Bolalar Yunus boboga yordam beryaptilar. Zokir tarvuzlarni uzyapti.

Olim qovunlarni uzyapti. Odil Yunus bobo bilan qovun va tarvuzlarni to'playapti.

Polizda nimalar pishadi?

Daftaringizga yozing.

Polizda ..., ... pishadi.

Qovun va tarvuz po'choqlarini ko'chaga, yerga tashlamang! Tabiatni asrang! Hovli va ko'chani toza tuting.

UY HAYVONLARI



sigir va buzoqcha



ot va toychoq



echki va uloqcha



qo'y va qo'zichoq



it va kuchukcha



mushuk va mushukcha

Kuchukcha — itning bolasi.

Mushukcha — mushukning bolasi.

Toychoq — otning bolasi.

Buzoqcha — sigirning bolasi.

Uloqcha — echkning bolasi.

Qo'zichoq — qo'yning bolasi.

Sigir, buzoqcha, ot, toychoq, echki, uloqcha, qo'y, qo'zichoq — uy hayvonlari.



Bu molxona. Molxonada sigir, buzoq, ot, qo'y, echki boqiladi.

Tovuqxonada tovuqlar, kurkalar, g'ozlar, o'rdaklar boqiladi.

Sigir, buzoq, ot, qo'y, echki — uy hayvonlari.

Daftaringizga yozing.

Sigir qanday hayvon?

Buzoq qanday hayvon?

Ot qanday hayvon?

Qo'y qanday hayvon?

Echki qanday hayvon?

It qanday hayvon?

Mushuk qanday hayvon?

Sigir — uy hayvoni.

Buzoq — uy hayvoni.

Ot — uy hayvoni.

Qoy — uy hayvoni.

Echki — uy hayvoni.

It — uy hayvoni.

Mushuk — uy hayvoni.

Sigir, ot, echki, qo'y — o't yeydi. Mushuk ... ichadi.
It ... yeydi.

UY PARRANDALARI



kurka va kurkaning
jo'jasi



g'oz va g'ozning
jo'jasi



o'rdak va o'rdakning
jo'jasi



xo'roz, tovuq
va jo'jalar

Kurka va uning jo'jasi, g'oz va uning jo'jasi, o'rdak va uning jo'jasi, xo'roz, tovuq va jo'jalar — uy parrandalari.

Daftaringizga yozing.

Kurka va kurkaning jo'jasi — uy parrandalari.
G'oz va g'ozning jo'jasi — uy parrandalari.
O'rdak va o'rdakning jo'jasi — uy parrandalari.
Tovuq va jo'ja — uy parrandalari.

UY PARRANDALARI NIMA QILADI?

G'oz va g'ozning jo'jasi yerda yuradi, suvda suzadi.
O'rdak va o'rdakning jo'jasi yerda yuradi, suvda suzadi.

Xo'roz, tovuq va jo'jalar yerda yuradi, suvda suzmaydi.



O'rdakcha, g'ozcha va jo'ja

O'rdakcha, g'ozcha va jo'ja o'ynab yurgan edi. Ular hovuzchani ko'rib qoldilar. O'rdakcha va g'ozcha suvga sakradi. O'rdakcha va g'ozcha suvda suzib ketishdi. Jo'ja esa yig'lab qoldi.

Jo'ja nima uchun yig'ladi? Yozing.
Shunday yozing:

O'rdakcha — suzishni biladi.

G'ozcha — suzishni biladi.

Jo'ja — suzishni bilmaydi.

Eslab qoling.

G'oz va g'ozning jo'jasi suvda suzadi.

O'rdak va o'rdakning jo'jasi suvda suzadi.


Tovuq, xo'roz, kurka va jo'jalar suvda suzmaydi.

Rasmga qarang.



G'ozni ko'rsating. G'ozning jo'jasini ko'rsating.
Xo'rozni ko'rsating. Tovuqni ko'rsating. O'rdakni
ko'rsating. O'rdakning jo'jasini ko'rsating. Kurkani
ko'rsating. Jo'jalarni ko'rsating.

UY QURISH




Uy shunday quriladi. Avval poydevor quriladi. Keyin devor quriladi. Keyin tom yopiladi. Keyin pol qoqiladi. Undan keyin eshik va deraza qo'yiladi.




uzun to'sin




kalta to'sin



kubik



prizma



arka

Bolalar uy quryaptilar. Siz ham shunday uy quring.

Ish uchun sizga:

4 ta arka, 2 ta to'sin, 2 ta prizma kerak.

Avval poydevor quring. Keyin devor ko'taring.

Keyin tom qo'ying.

Siz uyni qanday qurdingiz? Yozing.

Nechta arka qo'ydingiz?

4 ta ... qo'ydik.


Nechta prizma qo'ydingiz?

Ustiga 2 ta ... qo'ydik.

Nechta to'sin qo'ydingiz?

2 ta ... olib ustiga qo'ydik.

Qo'yish uchun so'zlar: prizma, to'sin, arka.



Bu uy to'qqiz qavatli.

Birinchi qavat
Ikkinchi qavat
Uchinchi qavat
To'rtinchi qavat
Beshinchi qavat


Bu uy to'rt qavatli.

Oltinchi qavat
Yettinchi qavat
Sakkizinchi qavat
To'qqizinchi qavat

Kim nechanchi qavatda yashaydi?


Sen nechanchi qavatda yashaysan?
Ikkinchi qavatda kim yashaydi?
Uchinchi qavatda kim yashaydi?
To'rtinchi qavatda kim yashaydi?
Beshinchi qavatda kim yashaydi?
Oltinchi qavatda kim yashaydi?
Yettinchi qavatda kim yashaydi?
Sakkizinchi qavatda kim yashaydi?
To'qqizinchi qavatda kim yashaydi?

Men birinchi qavatda yashayman.
Ikkinchi qavatda Bobur yashaydi.
Uchinchi qavatda Saida yashaydi.
To'rtinchi qavatda Guli yashaydi.
Beshinchi qavatda Sobir yashaydi.



Oltinchi qavatda Anvar yashaydi.
Yettinchi qavatda Lobar yashaydi.
Sakkizinchi qavatda Barno yashaydi.
To‘qqizinchi qavatda Olim yashaydi.
Bobur ... qavatda yashaydi.
Saida ... qavatda yashaydi.
Guli ... qavatda yashaydi.
Sobir ... qavatda yashaydi.
Anvar ... qavatda yashaydi.
Lobar ... qavatda yashaydi.
Barno ... qavatda yashaydi.
Olim ... qavatda yashaydi.

LEGODAN UY QURISH



Bolalar legodan uy quryaptilar.

1. Uzun to‘rtburchak.
2. Kalta to‘rtburchak.
3. Kubik.
4. Uchburchak (prizma).



Xuddi shunday qilib ikki qavatli uy quring.

1 ta uzun to'rtburchak qo'ying. Ustiga ikkita kalta to'rtburchak qo'ying. Ularning o'rtasiga oq kubik qo'ying. Ustiga yana bitta uzun to'rtburchak qo'ying. Nima hosil bo'ldi? Bir qavatli, ikkita derazali uy hosil bo'ldi.

HOSIL BAYRAMI



Vatanimizda hosil bayrami. Hamma xursand. Ana paxta karvoni. Ana mevalar. Ana sabzavotlar. Karnay, surnay, doiralar chalinyapti. Hamma raqsga tushyapti.

Eslab qoling.

Hosil bayrami.

Paxta karvoni.

Mevalar karvoni.

Sabzavotlar karvoni.

Karnay chalinyapti.

Surnay chalinyapti.

Doira chalinyapti.

Raqsga tushyaptilar.

Gaplarni to'ldirib yozing.

Vatanimizda ... bayrami.

Hamma

Ana paxta

Ana ... karvoni.

Ana ... karvoni.

Qo'yish uchun so'zlar: *mevalar, karvoni, sabzavotlar, hosil, xursand.*

DO'STLAR



Kuchukcha bilan ayiqcha do'st bo'lishdi. Ular soyga borishdi. Soy bo'yida maymunjon topishdi. Ayiqcha xursand bo'ldi va maymunjonni yedi. Kuchukcha esa maymunjon yemaydi. U hech narsa yemadi. U qarab turdi. Keyin ular yana yurishdi. Ayiqcha yong'oq yedi, asal yedi. Kuchukcha esa asal ham yemaydi, yong'oq ham yemaydi. Kuchukcha och qoldi. Kuchukcha uyida ovqat yedi. U xafa bo'ldi. Ayiq bilan kuchukcha endi do'st emas.

Savollarga javob bering. Daftaringizga yozing.

Kuchukcha nima yeydi?
Kuchukcha non yeydi.
Kuchukcha go'sht yeydi.
Kuchukcha suyak g'ajiydi.

Sigir nima yeydi?
Ot nima yeydi?
Quyov nima yeydi?

Ayiqcha nima yeydi?
Ayiqcha mevalarni yeydi.
Ayiqcha asal yeydi.
Ayiqcha shirinliklarni yeydi.
Sigir o't, yem yeydi.
Ot o't, yem yeydi.
Quyov sabzi, karam yeydi.

VASILA UYALDI



Vasilaning onasi ishga ketdi. Vasilaning oldiga dugonasi Saida keldi. Vasila kiyinmoqchi bo'ldi. U kiyimlarini qidirdi. Saida so'radi: „Sen nega kiyinmayapsan?“ Vasila uyaldi. Ko'ylagi, paypog'i, tuflisi yo'q edi. U kiyimlarini har qayoqqa tashlagan edi. Shuning uchun ko'ylagi, paypog'i, tufisini topolmadi. Saida ketib qoldi. Vasila maktabga kech qoldi.

Siz kiyimingizni javonga osing! Kiyimingizni ozoda saqlang!

Bir-biringizga savol bering va savollarga javob bering.

Vasila nega kiyimlarini qidirdi?

Siz kiyimlaringizni qayerga qo'yasiz?

Aytib bering.


KIM NIMA QILYAPTI?




Aziz o'rnidan turyapti.



Aziz badantarbiya qilyapti.



... o'rnini yig'yapti.



... o'rnini yig'di.



Aziz yuvinyapti.



Aziz yuvindi.



Aziz kiyinyapti.



Aziz kiyindi.



Aziz ovqatlanyapti.





Aziz ovqatlandi.

Daftaringizga yozing.

Aziz turdi.
Aziz badantarbiya badantarbiya qildi.
Aziz o'rnini o'rnini yig'di.
Aziz yuzini yuvindi.
Aziz kiyinyapti.	... kiyindi.
Aziz ovqatlanyapti.	... ovqatlandi.

NIMA QILDI?



Nilufar turdi. Nilufar badantarbiya qildi. Nilufar o'rnini yig'di. Nilufar ovqatlandi.

Xonangiz va kiyimlaringizni toza saqlang! Ozoda bo'ling! Sog'lom bo'lasiz.

BIRINCHI QOR



Kecha, bugun.

Kecha havo iliq edi. Bugun havo sovidi. Shamol ko'tarildi. Osmonni bulut qopladi. Osmondan katta-katta qor parchalari yog'a boshladi. Hamma yoqni oppoq qor qopladi. Bolalar palto, qalpoq, etik kiyib oldilar. Ular ko'chada qor o'ynayaptilar. Chana va chang'ida uchyaptilar.

Qishda issiq kiyimlaringizni kiying, keyin ko'chaga chiqing. Toza havoda o'ynang. Sog'lom bo'lasiz.

Bulut rasmini chizing.

Qor parchasi rasmini chizing.

Savollarga javob bering. Daftaringizga yozing.

Hozir qanday fasl?

Hozir havo qanday?

Osmonni nima qopladi?

Bolalar nimalarni kiydilar?

Bolalar nimalarda uchyaptilar?

Qor qanaqa?



Qish fasli. Hamma yoqda oppoq qor. Daraxtlarda va tomlarda qor. Dalada qor ko'p. Bolalar chana uchyaptilar. Ular issiq kiyinishgan.

YOVVOYI HAYVONLAR



Bo'ri uyasida yashaydi.



Ayiq g'orda yashaydi.

Bu tog' echkisi. U tog'da yashaydi.
Tog' echkisi o't yeydi.



Bu quyon. U uyasida yashaydi.
Quyon o't, sabzavot yeydi.



Bu tulki. U uyasida yashaydi. Tulki parranda va mayda hayvonlarning go'shtini yeydi.



Bu yo'lbars. U qamishzorda yashaydi. Yo'lbars hayvonlarning go'shtini yeydi.



Bu U meva, sabzavot, asal, baliq yeydi.

Bu U hayvonlarning go'shtini yeydi.

Rasmlarga qarang. Gaplarni to'ldiring.
Daftaringizga yozing.

Yovvoyi hayvonlar qayerda yashaydi?

(o'rmonda, qamishzorda, tog'da)

HAYVONLAR NIMA QILYAPTI?



Tulki quyonni quvlayapti.




Bo'ri qo'yni quvlayapti.



Mushuk jo'jani quvlayapti.

It mushukni quvlayapti.



Bular qanaqa hayvonlar? Ularning nomlarini ayting.

Uy hayvonlarini yozing.

Bu ot. Bu it.

Ot — ... hayvoni.

Bu tuya.

Tuya — ... hayvoni.

Bu sigir.

Sigir — ... hayvoni.

It — uy hayvoni.

Ot — uy hayvoni.

Sigir —

... —

... —

Yovvoyi hayvonlarni yozing.

Bu bo'ri.

Bo'ri — ... hayvon.

Bu ayiq.

Ayiq — ... hayvon.

Bu yo'lbars.

Yo'lbars — ... hayvon.

Bo'ri — yovvoyi hayvon.

Ayiq —

... —

... —

ARCHA O'YINCHOQLARI



savatcha



bayroqchalar




shar




konfet



xo'rozcha



raketa



o'rdakcha



yulduzcha



ayiqcha



qorparcha

Bolalar archa o'yinchoqlarini yasayptilar. Saodat qor parchalarini qirqyapti. Bobur bilan Ulug'bek qog'ozdan zanjir yasayptilar. Aziza ayiqcha qirqyapti. Ular yana ko'p o'yinchoqlar yasaydilar. O'yinchoqlar bilan archani bezatadilar.

Siz ham qor parchalarini yasang.
Ish uchun sizga nimalar kerak? Yozing.
Shunday yozing:

Ish uchun menga ...,, ... kerak.

Bayramda portlaydigan o'yinchoqlarni o'ynamang!
Portlaydigan o'yinchoqlar juda xavfli.

ARCHA BAYRAMI



Bugun maktabda archa bayrami. Bolalar archani bezatdilar. Ular archaga har xil o'yinchoqlar osdilar. Ular yana o'zlari yasagan ..., ..., ..., ..., ..., ..., ...larni ham osdilar. Archa juda chiroyli bo'ldi.

Archa bayramiga ... bilan ... keldi.

Qorbobo bolalarga ...lar berdi. Bolalar raqsga tushdilar, ashula aytdilar.

Nuqtalar o'rniga qo'yish ushun so'zlar: xo'roz, ayiqcha, yulduzcha, oy, olma, pomidor, uycha, qorbobo, qorqiz, sovg'alar.

III CHORAK

QISHKI TA'TILDA



Qishki ta'til boshlandi. Hamma bolalar uylariga keldilar. Uyda ularni otasi, onasi, buvisi, bobosi va akasi kutib olishdi.

Dildora ham uyiga keldi. Dildoraning uyida chiroyli archa yasatilgan. Archada har xil o'yinchoqlar: ..., ..., ..., ..., ... bor.

Dildoraning onasi yangi yilga dasturxon bezatdi. Dasturxonda ..., ..., ..., ... bor. Dasturxon atrofida bobosi, buvisi, otasi, akasi o'tiribdilar. Dildora likopchalarda shirinliklar keltirdi. Onasi laganda osh olib kelyapti.

Ovqatlanishdan oldin qo'lingizni sovun bilan yuving!
Ovqatni qoshiq bilan yeng! Qoshiqni o'ng qo'lingiz bilan ushlang!



Vazira shaharda yashaydi. Vazira ta'tilda onasiga yordam berdi. Bo'sh vaqtda ko'chada o'ynadi. Kechqurun televizor ko'rdi, kitob o'qidi.



Sevara qishloqda yashaydi. Sevara ta'tilda otasi va onasiga yordam berdi. Buzoqlarga suv berdi. Kechqurun televizor ko'rdi, kitob o'qidi.

Vazira ta'tilda nima qildi?

Sevara ta'tilda nima qildi?

Daftaringizga yozing.

Odobli bo'ling! Oilada hammani hurmat qiling! O'z ishlaringizni o'zingiz bajaring!

14- YANVAR — VATAN HIMOYACHILARI KUNI



14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni.
Bizning armiyamiz
Bizning chegarachilarimiz ... va
Bizning askarlarimiz

Nuqtalar o'rnini to'ldiring. Daftaringizga yozing.
Qo'yish uchun so'zlar: kuchli, ziyrak, botir, Vatan himoyachilari.

Askarlar Vatanimizni qo'riqlaydilar. Vatanimizni seving!

ASKARLARNING MEHMONI



Bolalar askarlarni yaxshi ko'radilar.
Bolalar askarlarning oldiga mehmon bo'lib keldilar.
Bolalar ularga sovg'alar olib keldilar.
Askarlar juda xursand bo'ldilar.

QUSHLARNI O'RGANAMIZ



qarg'a



kaptar



chumchuq



musicha



qaldirg'och



bulbul

Eng kichkina qushchani ko'rsating.

Eng katta qushni ko'rsating.

Qaldirg'ochning dumi qanaqa?

Kaptarning dumi qanaqa?

Javoblarni daftaringizga yozing.

Rasmdagi qushlarni diqqat bilan ko'ring. Ularni siz har kuni ko'rasiz. Nomlarini yozing.

BOLALAR QUSH YASADILAR

Bolalar qanaqa qush yasayaptilar?

Qush katta, boshi qora, tanasi kulrang, qanoti qora, dumi uzun.

Qush yasash uchun talabnoma yozing. Shunday yozing:

Ishlash uchun menga: oq plastilin, qora plastilin, jigarrang plastilin, ikkita kichkina shisha tugmacha kerak.



Aytib ber. Sen qushni qanday yasaysan?

Men birinchi qushning tanasini yasayman. Keyin uning ...ni yasayman. Keyin uning ...larini yasayman. Keyin ...g'i va ...ni yasayman. Oxirida qushning ... yasayman.

Qo'yish uchun so'zlar: *tumshug'i, tanasi, boshi, qanotlari, dumi, oyoqlarini.*

Bitta qushning rasmini chizing. Ko'p qushlarning rasmini chizing. Rasmlarning tagiga yozing.

TUG'ILGAN KUN

Hikoyani o'qing. Nuqtalar o'rniga so'z qo'ying.



Bugun Manzuraning tug'ilgan kuni. U 8 yoshga to'ldi. Manzuraning uyiga Salima, Nodira, Turg'un va Vali mehmonga keldilar.

Bolalar Manzurani tug'ilgan kuni bilan tabrikladilar. Ular Manzuraga sovg'a olib keldilar. Salima ... sovg'a qildi. Nodira ... sovg'a qildi. Turg'un ... sovg'a qildi. Vali esa rasm chizdi va tagiga yozdi: „Manzura, tug'ilgan kuning bilan tabriklayman!“

Qo'yish uchun so'zlar: *guldon, kitob, gul.*

Savollarga javob bering.

Kimning tug'ilgan kuni edi?
Nechta bola mehmonga keldi?
Turg'un nima sovg'a qildi?
Vali nima sovg'a qildi?

Nodira nima sovg'a qildi?

Salima nima sovg'a qildi?

O'rtog'laringizni hurmat qiling! Ular ham sizni hurmat qiladilar.

„QARG'ALAR QORDA“



Bolalar applikatsiya yasadilar. Ular ishlash uchun: oq qog'oz, qora qog'oz, yashil qog'oz, jigarrang qog'oz, qaychi, yelim, mo'yqalam oldilar. Bolalar applikatsiyani shunday bajardilar:

Ikkita guruhga bo'lindilar. Birinchi guruhda ... o'quvchi, ikkinchi guruhda ... o'quvchi bo'ldi. Birinchi guruhga Bobur sardor bo'ldi. Ikkinchi guruhga Sora sardor bo'ldi. Bolalar avval yerdagi qorni yasadilar. Keyin archalar va qarg'alarni yasadilar. Keyin hammasini joyladilar.

Bolalar archa, qarg'alarni qanday yasadilar?

1. Archa andazasini yashil qog'ozning ustiga qo'yadilar.

2. Chizib oldilar va qiradilar.

3. Qarg'a andazasini oq qog'ozning ustiga qo'yadilar.

4. Chizib oldilar. Qargʻaning boshi, qanoti va dumini qoraga boʻyadilar. Qargʻani qirqib oldilar.

Siz ham birgalikda ishlang! Birgalikda oʻynang!

Siz ham talabnoma yozing. Shunday yozing:

Ish uchun menga ..., ..., ..., ... kerak.

Ishlash tartibi:

Andazani yashil qogʻoz ustiga qoʻyasiz. Qalam bilan archani chizib olasiz. Qaychi bilan qirqib olasiz.



Nima qilyapsan? Nima qilding?

Toʻgʻri ayting va yozing.

Men andazaning ustidan chizyapman.

Men qirqyapman. Men yopishtiryapman.

Men andazaning ustidan chizdim.

Men qirqdim. Men yopishtirdim.

KIM AYBDOR?

Valining choʻzmasi bor edi. U choʻzmasini oldi va bogʻga bordi. Daraxtda bir qushni koʻrdi. U choʻzmani oldi va qushni poyladi. Qush oʻrtoqlarini chaqirdi. Qushning oʻrtoqlari uchib keldi. Qushlar Valini choʻqishdi. Vali qushlardan qochdi.

Savollarga javob bering.

Vali qayerga bordi?

Daraxtda u nimani koʻrdi?

Qushlar nima qildi?
Vali yana qushlarga tosh otadimi?
Vali nima qildi?
Nima uchun?

Bolalar, qushlarni asrang!
Ularni qo'riqlang!



FIL YORDAM BERDI



Bo'ri juda och edi. U quyonni ko'rib qoldi. Bo'ri quyonni yemoqchi bo'ldi. Quyon qochdi. Oldidan fil chiqdi. Quyon filning xartumiga chiqib oldi. Fil xartumini yuqoriga ko'tardi. Bo'ri qo'rqib qochib ketdi. Quyon esa qutulib qoldi.



Savollarga javob bering.

Bo'ri nimani ko'rib qoldi?
U quyonni nima qilmoqchi edi?
Quyon nima qildi? Fil nima qildi?
Quyon qayerga chiqib oldi?
Bo'ri nima qildi?

O'RMON ERTAGI

O'rmonda quyonlar, bo'ri va tulki yashar ekan. Qish fasli boshlandi. Havo sovuq bo'ldi. Quyonlar o'zlariga uy yasadilar. Ular  dan pol qildilar, keyin  yasadilar. Keyin tom qildilar. Oyna topib derazalariga qo'yidilar.



yasadilar. Chiroyli



qurdilar. Quy-
yonlar juda xursand bo'ldilar. Quyonlarning

uyini



va



ko'rdilar. Ular ham uy

qurmoqchi bo'ldilar. Katta muz parchasini to-

pib




yasadilar. Keyin qordan uyning

devorlarini yasadilar.



lariga muzdan oyna

qo'ydilar. Muzdan



qurdilar. Uy xunuk va

sovuq bo'ldi.



Savollarga javob bering.

Quyionlar uyni nimadan qurdilar?

Bo'ri bilan tulki uyni nimadan qurdilar?

Quyionlar eshikni nimadan yasadilar?

Bo'ri bilan tulki eshikni nimadan yasadilar?


Quyoning uyi qanaqa bo'ldi?
Bo'ri bilan tulkinging uyi qanaqa bo'ldi?

So'zlarni birlik va ko'plik shaklida yozing.

deraza — birlikda
derazalar — ko'plikda
tom — birlikda
tomlar — ko'plikda

uy — ...
uyalar — ...
arra — ...
arralar — ...

UY



Rasmlarning nomini ayting. Daftaringizga yozing.

Pol jigarrang. Derazalar oq rangda. Devorlar pushti rangda. Tom kulrang. Zinalar jigarrang. Uy havorang.

Birlik va ko'plikdagi so'zlarni yozing.

Birlikdagi so'zlar

...
...
...

Ko'plikdagi so'zlar

...
...
...

RANGLARNI FARQLASH

Rasmlarni ko'ring. Ranglarni shunday yozing:

daraxt — yashil

olma — ...

limon — ...

palto — ...

sovun — ...

nok — ...

piyola — ...

tuxum — ...

choynak — ...

qulupnay — ...



Daraxt qanaqa? — Daraxt yashil. (yashil)

Olma qanaqa? — (qizil)

Limon qanaqa? — (sariq)

Palto qanaqa? — (ko'k)

Sovun qanaqa? — (pushti)

Nok qanaqa? — (sariq)

Piyola qanaqa? — (ko'k)

Tuxum qanaqa? — (oq)

Choyinak qanaqa? — (ko'k)

Qulupnay qanaqa? — (qizil)

QUSHLARGA YORDAM



Hikoyani o'qing.

Uyning tomida qaldirg'och yashar edi. Kuzda hamma qaldirg'ochlar issiq o'lkalarga uchib ketdi. Bitta qaldirg'och yarador edi. U o'z inida qoldi.

Bolalar qaldirg'ochni ko'rdilar. Uni maktabga olib keldilar. Qaldirg'ochga don, suv berdilar. Uni davoladilar.

Bahor keldi. Qaldirg'ochning o'rtoqlari uchib keldi. Bolalar uni qo'yib yubordilar.

AKVARIUM

Diqqat bilan o'qing.



Maktabimizda katta akvarium bor. Akvariumda har xil baliqchalar bor. Ular har xil rangda. Lobar bilan Nafisa qizil baliqchalarni yaxshi ko'radilar. Botir bilan Akmal qora baliqchalarni yaxshi ko'radilar. Bolalar baliqchalarga har kuni ovqat beradilar.

Rasmga qarab, o'zingiz hikoya tuzing.

Tabiatni, qushlarni, baliqlarni asrang!

ANVAR BILAN BOBUR NIMA YASAYPTILAR?



Anvar bilan Bobur plastilinni olib, undan uzunchoq tana yasadilar. Tanaga uchli bosh va dum yasadilar. Ular yana ustiga, ostiga va yonlariga suzgichlar yasadilar. Ular nima yasayptilar, toping.

Siz ham yasang.

1. Avval katta bo'lak ... oling.
2. Keyin uzunchoq ... yasang.
3. Keyin uchli ... va ... yasang.
4. Ikkita katta ... va to'rtta kichkina ... yasang.
5. ...larni ustiga, ostiga va yonlariga yo-pishtiring.


Rasmga qarab, hikoyani to'ldiring va yozing.

JONLI BURCHAK

Bu jonli burchak. Jonli burchakda ..., ..., ... bor. Jonli burchakda yana ... bor. Akvariumda har xil ... bor. Jonli burchakda juda ko'p gullar ham bor. Bolalar ...ni parvarish qiladilar. Qushlarga, tipratikanga, baliqlarga ... beradilar. Ularning qafasini tozalaydilar.

Qo'yish uchun so'zlar: *qushlar, baliqlar, tipratikan, oziqa.*

**Jonli burchakni ozoda saqlang!
Jonivorlar sog'lom bo'ladi.**



Daftaringizga yozing.

ovqat beryaptilar — ovqat berdilar
parvarish qiladilar — parvarish qildilar
tozalaydilar — tozaladilar

Hozir $\left\{ \begin{array}{l} \text{yozyapmiz.} \\ \text{o'ynayapmiz.} \\ \text{choy ichyapmiz.} \end{array} \right.$

Kecha $\left\{ \begin{array}{l} \text{yozdik.} \\ \text{o'ynadik.} \\ \text{choy ichdik.} \end{array} \right.$

QOZIQQ



Salimjon shoshilib uyga ketayotgan edi. U yerdagi qoziqchaga qoqilib yiqildi. Salimjon o'rnidan turdi. Kiyimlarini qoqdi va ketdi. Keyin u to'xtadi va orqaga qaytdi. Yo'ldagi qoziqni sug'urib tashladi. „Boshqalar ham yiqilmasin“, — dedi u.

Salimjon aqlli bola.

Bir-biringizga savol bering. O'ylang va javob bering.

Salimjon nega yiqildi?

Salimjon nega orqaga qaytdi?


U nima deb o'yladi?

KONSTRUKTOR BILAN ISHLASH



Bolalar konstruktor bilan ishlayaptilar. Ular stol yasayaptilar. Lola bilan Kamol sekin ishlayapti. To'liqin stolni tez yasadi. Avval u hamma qismlarni tayyorlab qo'ydi. Keyin kattaroq tunukani oldi. Oyoqlari uchun to'rtta planka, to'rtta gayka oldi. To'rtta oyoqchani tunukaga mahkamladi.

Bularning nomlarini bilib oling.



tunuka



planka





gayka




bolt


UY VA MEBEL YASASH




Uy qismlarini bilib oling.




Bu arka.



Bu stolning taxtasi.







Bu prizma (tom).



Bu stol va stulning oyog'i.

Uy shunday quriladi:

Ikkita arka oling va yonma-yan qo'ying.
Yana ikkita arka oling va ustiga qo'ying.
To'rtta prizmani arkalarning ustiga qo'ying.



Garaj shunday quriladi:

Ikkita arka oling.
Yonma-yan qo'ying.
Ustiga to'rtta prizmadan tom qo'ying.


Siz ham garaj quring.
Qanday qurishingizni ayting.

1. Nechta arka olasiz?
2. Arkalarni qanday qo'yasiz?
3. Arkalarning ustiga nechta prizma qo'yasiz?

Garajingizni o'rtoqlaringizga ko'rsating.
Qanday qurganingizni aytib bering.

GUL

1. Tugmachalardan mozaikali gul yasaymiz.
2. Oq moychechak yasaymiz.
3. Qizil tugmachani o'rtaga qo'ying.
4. Oq tugmachalarni atrofiga tering.
5. Uchta yashil tugmachani oq tugmachadan pastga qo'ying.
6. Yashil tugmachaning ikkinchisidan o'ng tomonga ikkita yashil tugmacha qo'ying. Bu barg bo'ladi.



Ayting va daftaringizga yozing.

Men

yasayman
teraman
qo'yaman

Biz

yasaymiz
teramiz
qo'yamiz

OPA VA UKA

Lola va Komil — opa-uka. Lola katta, Komil kichkina. Ular juda ahil. Lola har doim ukasiga yordam beradi. Opasi qalpoqcha yasadi. Ukasi ham qalpoqcha yasamoqchi bo'ldi. Lola chiroyli qalpoqcha yasadi. Komil qalpoqcha yasay olmadi.



Keyin nima bo'ldi?

O'ylab ko'ring.

Lola ukasiga yordam berdimi?

Siz ham ukangizga yordam berasizmi?

Savollarga javob bering.

Opasining ismi nima?

Opasi qanaqa?

Ukasining ismi nima?

Ukasi qanaqa?

Opasi nima qildi?

Ukasi nima qildi?

Kattalarni hurmat qiling!

Kichiklarga g'amxo'r bo'ling!

MUSHUKCHA AYBDOR



Botir uyda edi. U stulda o'tirgan edi. Stolning ustida ... bor edi. Botir naqsh yasayotgan edi. Unga ... yugurib kirdi. Mushukcha o'ynadi. U dasturxonga osildi. Birdan Naqsh buzildi. ... xafa bo'ldi.

Qo'yish uchun so'zlar: *dasturxon, dasturxon surildi, mushukcha, Botir.*

MINORA



Salim chiroyli minora yasamoqchi bo'ldi. Ukasi xonaga, uning yoniga kirdi. Keyin u akasiga yordam berdi. Ukasi ham minora yasamoqchi bo'ldi. Lekin minora buzilib ketdi. Ukasi qo'rqdi va yig'ladi. Salim ukasini yupatdi. Ular birgalikda boshqa minora yasadilar.

Siz ham minora yasang!

ONAJONLAR BAYRAMI

8- Mart — Onajonlar, buvionlar bayrami. Hamma bolalar buvijonlari, onajonlari va ustozlarini tabriklaydilar. Ular buvijonlari, onajonlari va ustozlariga gullar sovg'a qiladilar.



SAKKIZINCHI MART

Bugun sakkizinchi mart. Vasila bilan Nigora sovg'a tayyorladilar. Vasila rangli qog'ozdan guldasta qirqdi. Guldastani oq qog'ozga yopishtirdi. Nigora oq qog'ozdan tabrik sovg'asi yasadi. Ular sovg'alarini onalariga berishdi. Nigora va Vasilaning onasi juda xursand bo'ldi.



Siz ham shunday guldasta yasang.
Onangizga va buvingizga sovg'a tayyorlang.

Daftaringizga yozing.


Kim?

onam
buvim
bobom

Kimga?

onamga
buvimga
bobomga

„GULDASTA“ APPLIKATSIYASI



Nigora guldastani shunday yasadi: u andazani ko‘k qog‘ozning ustiga qo‘ydi. Keyin qalam bilan chizib oldi. Qaychi bilan guldonni qirqdi. Guldonni oq qog‘ozga yelimpladi. Shundan keyin u gul va barglarning rasmini chizdi. Keyin gullarni, barglarni bo‘yadi va qirqib oldi. Avval gulning tanasini yelimpladi. Keyin gullarni va barglarni yelimpladi. Nigora guldastani juda chiroyli bajardi. Uning guldastasi toza va chiroyli chiqdi.

O‘qing va yod oling.

Har doim bo‘lsin quyosh!
Har doim bo‘lsin osmon!
Har doim bo‘lsin onam!
Har doim bo‘lay men!

NIMA QILYAPTI? NIMA QILDI?



Rasmlarga qarang.

Ustozingiz bilan birga kim nima qilayotganini yozing.

1. 2.

3. 4.

Qo'yish uchun so'zlar: *otlarga suv beryapti, derazani ochyapti, skripka chalyapti, varrak uchiryapti.*

suv beryapti — suv berdi ochyapti — ochdi
chalyapti — chaldi uchiryapti — uchirdi

Kim nima qilyapti? Nima qildi? Daftaringizga yozing.



olyapti — oldi



quryapti — qurdi



chizyapti — chizdi



beryapti — berdi



yuguryapti — yugurdi



o'qiyapti — o'qidi



so'rayapti — so'radi



ishlayapti — ishladi

KIM NIMA QILYAPTI? KIM NIMA QILDI?



Lola uy tozalayapti.



Bola yuvinyapti.



Qizcha kiyinyapti.



Qizcha idish yuvyapti.



Bola sakrayapti.



Qizcha kulyapti.



Bola yig'layapti.



Bola suv ichyapti.



Qizcha kuldi.



Bola yig'ladi.



Bola suv ichdi.

kiyinyapti — kiyindi

idish yuvyapti — ...

kulyapti — ...

suv ichyapti — ...

yuvinyapti — ...

sakrayapti — ...

yig'layapti — ...



Shifokor bolani ko'ryapti.
Shifokor bolani ko'rdi.




Komil rasm chizyapti.
Komil rasm chizdi.

YIL FASLLARI



Qish boshlanishi.




Qish.




Erta bahor.



Bahor.



Yoz boshlanishi.



Yoz.



Kuz.



Kech kuz.

Daftaringizga yozing.

Bir yilda 4 ta fasl bor: qish, bahor, yoz, kuz.



Bahor fasli – 3 oy:
mart, aprel, may.



Yoz fasli – 3 oy:
iyun, iyul, avgust.



Kuz fasli – 3 oy:
sentabr, oktabr, noyabr.



Qish fasli – 3 oy:
dekabr, yanvar, fevral.

Hozir bahor fasli. Hamma yoq yam-yashil.
Atirgullar, lolalar gullayapti. Kapalaklar, asalarilar,
ninachilar uchyapti.

IV CHORAK

HAMMANING O‘Z ISHI BOR



Rasmga diqqat bilan qarang.
Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring va hikoyani ko‘chiring.

ERTALAB

Onasi ishga ketdi. Otasi ham ... ketdi. Botir maktabga Lola ham ... ketdi. Aka-singil maktabda

Qo‘yish uchun so‘zlar: o‘qiydilar, ishga, maktabga, ketdi.

KUNDUZI

Onasi ishlayapti. U non pishiryapti. Otasi ishlayapti. U uy quryapti. Botir o‘qiyapti. Lola ham o‘qiyapti. Maktabdan keyin Botir bilan Lola to‘garakka ketyaptilar.

KECHQURUN



Onasi ovqat pishiryapti. U kotlet qovuryapti. Botir bilan Lola dars tayyorlayaptilar. Onasi to'qiyapti. Otasi kitob o'qiyapti. Aka-singil o'ynayaptilar.

ODOBLI BOLALAR

Odobli bolalar kattalarni hurmat qiladilar. Odobli bolalar tabiatni sevadilar. Odobli bolalar xushmuomala va ahil bo'ladilar.





Odobli bolalar yaxshi o'qiydilar.

Javob yozing.

Sinfda kim hammadan yaxshi o'qiydi?

Kimlar kattalarni hurmat qiladilar?


Kimlar tabiatni asraydilar?

Shunday yozing:

Sinfda ..., ... hammadan yaxshi o'qiydilar. ...
... kattalarni hurmat qiladi, ... tabiatni ... va
asraymiz.

Qo'yish uchun so'zlar: *sevamiz, Kamola, Nodira,*
odobli bolalar, biz.

MOZAIKADAN UYCHA QURISH



Rasmga diqqat bilan qarang.

Reja bo'yicha mozaikadan uycha va gul tering.

1. 22 ta yashil tugmachadan kvadrat tering.
2. Rasmga qarab pushti tugmachalardan tom tering.
3. 16 ta ko'k tugmachani oling, rasmga qarab, deraza tering.
4. 12 ta yashil va 6 ta sariq tugmachani oling va rasmga qarab, moychechak tering.
5. Moychechakning o'rtasiga qizil tugmachani qo'ying.

Daftaringizga yozing.

bir — birinchi
ikki — ikkinchi
uch — uchinchi
to'rt — to'rtinchi
besh — beshinchi

olti — oltinchi
yetti — yettinchi
sakkiz — sakkizinchi
to'qqiz — to'qqizinchi
o'n — o'ninchi

BAHOR



Hikoyani o'qing.

Bahor. Havo iliq. Qor eridi. O'tlar ko'kardi. Daraxtlar gulladi. Butalar barg chiqaryapti. Qushlar uchib kelishdi. Ular daraxtlarga in quryaptilar. Bog'larda ish boshlandi. Bolalar bog'ni tozalayaptilar. Bog'bon qurigan shoxlarni qirqiyapti. Sobir aka daraxtlarni oqlayapti.

Savollarga javob yozing.

1. Qaysi fasl boshlandi?
2. Havo qanday bo'ldi?
3. Qushlar nima qilyapti?
4. Bog'bon nima qilyapti?
5. Bolalar nima qilyaptilar?

BAHORGI TA'TIL



Nuqtalar o'rnini to'ldirib, hikoyani daftaringizga yozing.

Yigirma birinchi martdan bahorgi ... boshlanadi. Bolalar ... bormaydilar. Dam oladilar. Ular uyda ... o'qiydilar, qiziqarli ... ko'radilar. Hovlida o'ynaydilar. Dalaga boradilar. U yerda ... uchiradilar. Daraxtlar va gullarni parvarish qiladilar.

Bahorgi ta'til ... bo'ladi. Ular yana maktabga

Qo'yish uchun so'zlar: maktabga, ta'til, multfilmlar, tamom, boradilar, kitob, varrak.

Siz ta'tilda nima qildingiz? Qisqacha gapirib bering.

BOG'DA BAHOR



Bugun dam olish kuni. Havo ochiq. Bolalar bog'ga chiqdilar. Hamma yoq ko'm-ko'k. Bog'da daraxtlar ko'p. Olma, olcha, o'rik, yong'oq daraxtlari bor. Daraxtlar gullagan. Yerda har xil gullar: lola, qoqigul, chuchmomalar ochilgan. Kapalaklar, asalarilar uchib yuribdi. Bolalar lola teryaptilar. Bolalar juda xursand.

Savollarga javob bering. Daftaringizga yozing.

1. Bolalar qayerga bordilar?
2. Bog'da qanday daraxtlar bor?

3. Yerda qanday gullar ochilgan?
4. Bog'da nimalar uchib yuribdi?
5. Bolalar nima qilyaptilar?

Daftaringizga yozing.

lola — gul

olma — daraxt

chuchmoma — ...

olcha — ...

qoqigul — ...

o'rik — ...

GULLAR



Bitta lola.



Bitta chuchmoma.



Bitta qoqigul.



Ikkita lola.



Ikkita chuchmoma.



Ikkita qoqigul.

Lola dala va tog'larda o'sadi. Atirgul hovlida, ko'chalarda, gulzorda o'sadi. Chuchmoma, lo-laqizg'aldoq, qoqigul dalalarda, bog'larda va tog'larda o'sadi.

Lolani ildizi bilan uzming! Lola „Qizil kitob“ga kiritilgan. Tabiatni asrang!

„DALADA BAHOR“ MAKETI



Bolalar „Dalada bahor“ maketini tayyorlayaptilar. Ular katta taxtani oldilar. Ustiga qum sepdilar. Qumning ustiga ariqchalar qildilar. Qumning atrofiga ko‘k o‘t qo‘ydilar. O‘tlarning orasiga lola va boychechaklarni tiqib qo‘ydilar. O‘t bilan qumning orasiga ko‘k qog‘ozdan ariq qildilar. Maket dalaga o‘xshadi. Shoxchalardan daraxt yasadilar. Daraxtlarni dalaning chetiga o‘tqazdilar. Boshqa bolalar traktorcha yasadilar. Traktorni dalaning o‘rtasiga qo‘ydilar. „Dalada bahor“ maketi hosil bo‘ldi.

O‘rtog‘ingiz bilan „Dalada bahor“ maketini yasang. Ish uchun sizlarga nimalar kerak? Yozing.

NAVRO‘Z BAYRAMI



21- mart kuni „Navro‘z“ bayrami bo‘ladi. Navro‘zda sumalak, ko‘k somsa, halim pishiriladi. Hamma bir-birini tabriklaydi. Urishganlar yarasadi. Bugun „Navro‘z“ bayrami. Hamma xursand.

KIM NIMA QILYAPTI?

Nuqtalar o'rnini to'ldirib daftaringizga yozing.



O'rdak ... suzyapti.



Bola suvda



Odil bobosi bilan ... boqyapti.



Bolalar ... ekyaptilar.



Malika ... suv quydi.



Anvar buzoqqa ... beryapti.



Mushuk ...ni olib qochyapti.



... quyinni quvlayapti. | Akmal ...ga yiqildi. | Elbek loyga ...

KO'CHA



1. Rasmga qarang va yozing.

Ko'chaning o'ng tomonida nimalar bor?

Ko'chaning boshida, o'ng tomonda bitta uy turibdi. Uning yonida teatr bor. Teatrning yonida do'kon bor. Teatrning orqasida ikkita uy turibdi.

2. Ko'chaning chap tomonida nimalar bor?

Yozing. Shunday yozing:

Chap tomonda, ko'chaning boshida dorixona bor. Dorixonaning yonida maishiy xizmat uyi bor. Maishiy xizmat uyining orqasida uchta uy bor.

3. Savollarga javob yozing.

Ko'chaning chap tomonida birinchi nima turibdi?

Ko'chaning chap tomonida dorixonadan keyin nima turibdi?

Ko'chaning o'ng tomonida do'kondan keyin nima turibdi?

UYCHA QURISH



Bolalar kubiklardan uycha yasayaptilar.
Bolalar qizil, yashil, ko'k va sariq kubiklardan uycha qurdilar.

Rasmga qarab javob yozing.

Nechta qizil kubik oldilar?

Nechta yashil kubik oldilar?

Nechta ko'k kubik oldilar?

PAXTA



Bolalar paxta yasayaptilar. Ular yashil, jigarrang qog'oz, cho'p, bo'yoq, yelim, paxta va qaychi oldilar. Paxta chanog'i, bargining andazasini qirqib oldilar va paxta yasadilar.

Paxtani shunday yasadilar:

1. Chanoqning andazasini qog'ozga chizishdi. Qaychi bilan qirqib olishdi.

2. Bargning andazasini qog'ozga chizishdi. Qaychi bilan qirqib olishdi.

3. Paxtani chanoq ichiga qo'yishdi. Barg bilan chanoqni cho'pga yelim bilan yopishtirishdi.



paxtaning chanog'i



paxtaning bargi



ochilgan paxta

OILA



Bu Komil.



Bu Komilning opasi.



Bu Komilning buvisi.



Bu Komilning buvasi.




Bu Komilning onasi.



Bu Komilning otasi.

Rasmga diqqat bilan qarang.
Oilada kim nima qilyapti?



Nuqtalar o'rnini to'ldirib, daftaringizga yozing.

Lolaning bobosi ... o'tirib, gazeta Buvisi nevarasi Lolaga ... aytib beryapti. Onasi kiyimlarni dazmollayapti. Ukasi legodan kran Lola ertak

Qo'yish uchun so'zlar: *kresloda, o'qiyapti, ertak, yasayapti, eshityapti.*

Hikoyani o'qing. Daftaringizga yozing.



Komilning buvisi kasal bo'ldi. Komil singlisi bilan buvisinikiga keldi. Komil buvisiga gul va har xil mevalar olib keldi. Buvisi juda xursand bo'ldi.

Hikoyaga nom toping.

Siz ham buvi va bobolaringizga g'amxo'r bo'ling.

XOTIRA VA QADRLASH KUNI



Hikoyani ko'chirib yozing.

9-may — Xotira va qadrlash kuni. Bu kunni har yili bayram qilamiz. Bizning tinch, osuda, baxtiyor yashashimiz uchun jonini fido qilgan insonlarni eslaymiz. Ularning qahramonliklari, jasoratlari qarshisida bosh egamiz. Ularni doimo yodda saqlaymiz.

HASHAROTLAR



chayon



kapalak



chigirtka



chumoli



tillaqo'ng'iz



sariq ari



asalari



xonqizi

Chayon, kapalak, chigirtka, tillaqo'ng'iz, sariq ari, asalari, xonqizi, chumoli — hasharotlar.

Savollarga javob bering va daftaringizga yozing.

Nima uchadi?

Nima uchmaydi?

Nimaning qanoti bor?

Qo'ng'iz kattami yoki xonqizi?

Ari kattami yoki chumoli?

Bu kapalak. Uning qanotlari katta, chiroyli va rangli.

Kapalak uchadi. Kapalakning oltita oyog'i bor. Boshida ko'zlari bor. Mo'ylovi ham bor.



Qo'ng'iz qanaqa? Yozing.

Bu qo'ng'iz. Uning qanotlari ... va yaltiroq. Qo'ng'iz Qo'ng'izning ... oyog'i bor. Boshida ... bor. Mo'ylovi ham bor.



Qo'yish uchun so'zlar: *kichkina, qora, 4 ta, shoxi.*

Kapalak — hasharot.

Qo'ng'iz — hasharot.

Chumchuq — qush.

Chumoli — hasharot.

BUZOQCHA



Lola bilan Akmalning buzoqchasi bor. Ular har kuni buzoqchaga o't, yem, suv berishadi. Buzoqcha o'sib, katta sigir bo'ladi.

TOYCHOQ



Toychoq o'tlab yurgan edi. Bo'ri uni tutmoqchi bo'ldi. Toychoq qochib ketdi. Bolalar toychoqni ko'rib qoldilar. Ular toychoqni tutib oldilar. To'lqin o't berdi. Lola toychoqni silab qo'ydi. Bolalar toychoqni yaxshi ko'radilar.

YOZ



SAYOHATDA

Osmon o'pgan tog'larda,
Bag'ri chaman bog'larda,
Yoz chorlaydi, o'rtoqlar,
Soy bo'yi qirg'oqlarga.

Qushlar sayrar sho'xovoz,
Suvlar oqar chalib soz,
Yel tebratgan gullarning
Ko'rinishi juda soz.

Sayohatda, o'quvchi
Dorivor ko'katlar ter.
O'qish boshlangan chog'i
Maktabingga eltib ber.

Z. Obidov

MUNDARIJA

I chorak

1- sentabr — O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi kuni!.....	3
Sinfda	4
Yotoqxona	5
Oshxona	6
Oziq-ovqatlar	7
Mevalar	8
Sabzavotlar	9
Yuvinish xonasi.....	12
Ekinzor	16
„Mevalar“ applikatsiyasi.....	18
„Sabzavotlar“ applikatsiyasi.....	20
Daraxtlar.....	21
Barglar	22
Daraxt va butalar	22
Bog‘.....	23
Mevalarning rangi, mazasi.....	24
„Bog“ applikatsiyasi	26
Qayiqcha yasash.....	28
Mevalar pishdi	29
Plastilin bilan ishlash	30
Kiyimlar	31
Oyoq kiyimlar.....	32
Istirohat bog‘i.....	33

II chorak

Istirohat bog‘ida.....	34
Mehribonlik	35
Polizda	35
Uy hayvonlari.....	36
Uy parrandalari.....	38
Uy parrandalari nima qiladi?	38
Uy qurish.....	40
Legodan uy qurish.....	42
Hosil bayrami.....	43
Do‘stlar	44
Vasila uyaldi	45
Kim nima qilyapti?	45
Nima qildi?.....	47
Birinchi qor.....	48
Yovvoyi hayvonlar	49
Hayvonlar nima qilyapti?.....	50
Archa o‘yinchoqlari	52
Archa bayrami	53

III chorak

Qishki ta‘tilda.....	54
14- yanvar — Vatan himoyachilari kuni	55
Askarlarning mehmoni	56

Qushlarni o'rganamiz.....	57
Bolalar qush yasadilar.....	57
Tug'ilgan kun.....	58
„Qarg'alar qorda“.....	59
Kim aybdor?.....	60
Fil yordam berdi.....	61
O'rmon ertagi.....	61
Uy.....	63
Ranglarni ajratish.....	64
Qushlarga yordam.....	65
Akvarium.....	65
Anvar bilan Bobur nima yasayaptilar?.....	66
Jonli burchak.....	66
Qoziq.....	67
Konstruktor bilan ishlash.....	68
Uy va mebel yasash.....	68
Gul.....	70
Opa va uka.....	71
Mushukcha aybdor.....	72
Minora.....	72
Onajonlar bayrami.....	73
Sakkizinchi mart.....	73
„Guldasta“ applikatsiyasi.....	74
Nima qilyapti? Nima qildi?.....	74
Kim nima qilyapti? Kim nima qildi?.....	76
Yil fasllari.....	77

IV chorak

Hammaning o'z ishi bor.....	79
Ertalab.....	79
Kunduzi.....	79
Kechqurun.....	80
Odobli bolalar.....	80
Mozaikadan uycha qurish.....	81
Bahor.....	82
Bahorgi ta'til.....	83
Bog'da bahor.....	84
Gullar.....	85
„Dalada bahor“ maketi.....	85
Navro'z bayrami.....	86
Kim nima qilyapti?.....	87
Ko'cha.....	88
Uycha qurish.....	89
Paxta.....	89
Oila.....	90
Xotira va qadrlash kuni.....	92
Hasharotlar.....	92
Buzoqcha.....	93
Toychoq.....	93
Yoz.....	94
Sayohatda.....	94